

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirining
2025-yil « 23 » __iyundagi
_____180 -son buyrug‘iga
_____ - ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
AKADEMIK SHOKIR ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“SURUNKALI BRONXIT” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOL**

TOSHKENT-2025

«TASDIQLAYMAN»
Akademik Sh.Alimov nomidagi
RIFvaPIATM direktori
N.N. Parpiyeva

« 20 » *may* 2025 yil

“SURUNKALI BRONXIT” NOZOLOGIYASI BO’YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOL

TOSHKENT 2025

MUNDARIJA	BET
«SURUNKALI BRONXIT» KASALLIGINI TASHXISLASH VA DAVOLASH BUYICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL	10-28
«SURUNKALI BRONXIT» KASALLIGIDA TIBBIY PROFILAKTIKASI VA REABILITASIYASI BUYICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL	29-33
ILOVA	34

**«SURUNKALI BRONXIT» KASALLIGINI TASHXISLASH
VA DAVOLASH BUYICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL**

TOSHKENT – 2025

1. Кириш

Код(ы) МКБ-10:

J40	Bronxit, aniqlanmagan, o‘tkir yoki surunkali
J41	Oddiy va shilliq-yiringli surunkali bronxit
J41.0	Oddiy surunkali bronxit
J41.1	Shilliq-yiringli surunkali bronxit
J41.8	Aralash, oddiy va shilliq-yiringli surunkali bronxit
J42	Surunkali bronxit, aniqlanmagan
	Yuklab olish (XKT) havolasi: www.rlsnet.ru

Код(ы) МКБ-11:

CA20.1	Surunkali bronxit
CA20.10	Oddiy surunkali bronxit
CA20.11	Shilliq-yiringli surunkali bronxit
CA20.12	Aralash, oddiy va shilliq-yiringli surunkali bronxit
CA20.13	Uzoq davom etadigan bakterial bronxit
CA20.1Y	Boshqa aniqlangan surunkali bronxit
CA20.1Z	Surunkali bronxit, aniqlanmagan

Protokolni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi: 2025 yil, qayta ko‘rib chiqish sanasi 2028 yil yoki yangi asosli dalillar mavjud bo‘lganda. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar tegishli hujjatlarda e‘lon qilinadi.

Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas‘ul muassasa: Akademik Sh.Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hisoblanadi (RIFvaPIATM).

Кlinik protokol va standartni ishlab chiqishga hissa qo‘shganlar:

Jarayonni tashkil etish bo‘yicha pulmonologiya sohasidagi ishchi guruh a‘zolari

1	Aripov B.S.	RITvaRIATM mutaxassisi, t.f.n., dosent;
2.	Axmedov Sh.M.	TTA ftiziatriya va pulmonologiya kafedراسi dosenti, t.f.n.;
3.	Axatov I.M.	RIFva PIATM mutaxassisi, PhD;
4.	Gafner N.V.	RIFva PIATM mutaxassisi, oliy toifali pulmonolog.
5.	Irgashov A.A.	RIFva PIATM mutaxassisi, t.f.n.;
6.	Massavirov Sh.Sh.	RIFva PIATM ilmiy kotibi, PhD.
7.	Muminov K.P.	RITvaRIATM direktor o‘rinbosari, t.f.d.
8.	Raximova D.A.	RITvaRIATM mutaxassisi, t.f.d.;
9.	Ubaydullaeva N.N.	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi pulmonologiya va ftiziatriya klinik allergologiya kursi bilan kafedراسi mudiri, t.f.d, dosent;
10.	Tashmetova G.T.	RIFva PIATM mutaxassisi, PhD;

Mualliflar ro'yxati:

1.	Parpieva N.N.	RIFvaPIATM direktori, Sog'liqni saqlash vazirligi bosh ftiziatri, t.f.d.;
2.	Liverko I.V.	RIFvaPIATM direktor o'rinbosari, Sog'liqni saqlash vazirligi bosh pulmonologi, t.f.d. professor;
3.	Abduganieva E.A.	RIFva PIATM mutaxassisi, DSc;
4.	Rajabov X.S.	RIFvaPIATM direktor o'rinbosari, Sog'liqni saqlash vazirligi pulmonologiya yo'nalishi bo'yicha konsultanti, oliy toifali pulmonolog;

Resenzentlar:

1.	Belevskiy A.S.	Rossiya respirator jamiyati prezidenti, Moskva shahri Sog'liqni saqlash departamenti bosh pulmonologi, N.I. Pirogov nomidagi Rossiya Federasiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining Rossiya Milliy tadqiqot tibbiyot universiteti qo'shimcha kasbiy ta'lim fakulteti pulmonologiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.
2.	Maxmudov D.E.	O'zR FA akademigi, O'zbekiston terapevtlar assosiasiyasi raisi, t.f.d., professor.

Klinik protokol O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi RIFvaPIATM ilmiy kengashining 12.12.2024 yil №11-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Ilmiy kengash raisi - t.f.d. professor I.V. Liverko, RIFvaPIATM direktor o'rinbosari, SSV bosh pulmonologi;

Ekspertni baholash va tahrirlash:

1.	Sharapova G.Sh.	Sog'liqni saqlash vazirligi bosh ftiziopediatri, RIFva PIATM mutaxassisi;
2.	Abbasova D.I.	Sog'liqni saqlash vazirligi ftiziopediatriya yo'nalishi bo'yicha konsultanti, Toshkent sh. Bolalar sil kasalliklari shifoxanasi bosh shifokori.

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Amaliyot shifokorlari:

1.	Kalandarova L.N.	Toshkent shaxar Ftiziatriya va pulmonologiya markazining direktori.
2.	Ziyaev T.E.	Toshkent viloyatining Ftiziatriya va pulmonologiya markazining direktori.

Protokolning tashkiliy jihatlari:

Manfaatlar to‘qnashuvining yo‘qligi haqida ko‘rsatma: ishchi guruh a'zolari manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligini tasdiqlaydilar.

Qisqartmalar ro‘yxati

AQB	–	Arterial qon bosimi
BA	–	bronxial astma
BOS	–	bronxoobstruktiv sindrom
JSST	–	Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti
GKS	–	Glyukokortikosteroidlar
GERK	–	gastroezofageal reflyuks kasalligi
NE	–	Nafas etishmovchiligi
O‘US	–	o‘pkaning umumiy sig‘imi
iGKS	–	ingalyasion glyukokortikosteroidlar
IXP	–	ingibitor ximoyalangan penisillinlar
QTAX	–	qisqa ta'sirli antixolinergiklar (ATK bo‘yicha Antixolinergik dori vositalari)
QTBA	–	qisqa ta'sirli β 2-agonistlar
KT	–	kompyuter tomografiyasi
MSKT	–	multispiral kompyuter tomografiyasi
KQA	–	ko‘krak qafas a'zolari
JNChX ₁	–	1-soniyada jadal nafas chiqarish hajmi
DNT	–	dorining nojo‘ya ta'sirlari
NChChT	–	nafas chiqarish cho‘qqi tezligi
TNF	–	Tashqi nafas funksiyasi
O‘JTS	–	o‘pkaning jadal tiriklik sig‘isi
SB	–	surunkali bronxit
SNUK	–	surunkali nospesifik o‘pka kasalliklari
SOO‘K	–	surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi

NOS	–	nafas olishlar soni
YuUS	–	yurak urish soni
EKG	–	elektrokardiografiya
PaO2	–	arterial qondagi kislorodning parsial bosimi
PaSO2	–	arterial qondagi karbonat anhidridning parsial bosimi
SpO2	–	gemoglobinning kislorod bilan to‘yinishi
6-DYuS	–	6 daqiqalik yurish sinamasi

1. Protokol foydalanuvchilari:

1. Pulmonologlar;
2. Terapevtlar;
3. Umumiy amaliyot shifokorlari;
4. Sog‘liqni Saqlash tashkilotchilari;
5. Tibbiy yordam sifatini nazorat qiluvchi tashkilotlar (DTSJ).
6. Klinik farmakologlar;
7. Talabalar, klinik ordinatorlar, magistrlar, aspirantlar, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari;

1.	Umumiy amaliyot shifokorlari;
2.	Pulmonologlar;
3.	Terapevtlar;
4.	Rentgenologlar;
5.	Talabalar, klinik ordinatorlar, magistrlar;

Бемор тоифалари: катталар.

Ma'lumotlarning isbotlar darajasi

Tashxis usullari uchun isbotlarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi (IID)

DARAJA	TAVSIYALARNING ISHONCHLILIK MEZONLARI
1	Referens usuli bilan nazorat qilingan tadqiqotlarning sistematik sharhlari yoki meta-tahlil qo'llanilgan randomizasiyalangan klinik tadqiqotlarning sistematik sharhi
2	Referens usuli bilan nazorat qilingan alohida tadqiqotlar yoki alohida randomizasiyalangan klinik tadqiqotlar hamda randomizasiyalangan klinik tadqiqotlardan tashqari istalgan dizayndagi tadqiqotlarning meta-tahlil qo'llanilgan sistematik sharhlari
3	Referens usuli bilan bir taxlitda nazoratsiz o'tkazilgan tadqiqotlar yoki tadqiqotlar o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usuli bilan yoki norandomizasiyalangan qiyoslangan tadqiqotlar, xamda kogort tadqiqotlari.
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi.
5	Faqatgina ta'sir qilish mexanizmining asoslanishi yoki ekspertlarning fikri mavjudligi.

Profilaktika, davolash va rehabilitasiya usullari uchun isbotlarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi (IID):

DARAJA	TAVSIYALARNING ISHONCHLILIK MEZONLARI
1	Referens usuli bilan nazorat qilingan tadqiqotlarning sistematik sharhlari yoki meta-tahlil qo'llanilgan randomizasiyalangan klinik tadqiqotlarning sistematik sharhi
2	Referens usuli bilan nazorat qilingan alohida tadqiqotlar yoki alohida randomizasiyalangan klinik tadqiqotlar hamda randomizasiyalangan klinik tadqiqotlardan tashqari istalgan dizayndagi tadqiqotlarning meta-tahlil qo'llanilgan sistematik sharhlari
3	Referens usuli bilan bir taxlitda nazoratsiz o'tkazilgan tadqiqotlar yoki tadqiqotlar o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usuli bilan yoki norandomizasiyalangan qiyoslangan tadqiqotlar, xamda kogort tadqiqotlari.
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Faqatgina ta'sir qilish mexanizmining asoslanishi yoki ekspertlarning fikri mavjudligi.

Профилактика, ташхислаш, даволаш ва реабилитация усуллари учун Исботлар даражасини баҳолаш шкаласи (ИД)

Dalillar toifasi	Tavsif
A	Kuchli tavsiya (barcha ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim hisoblanadi, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli metodologik sifatga ega, ularning qiziqtiruvchi natijalar bo'yicha xulosalari muvofiqdir).
B	O'rtamiona tavsiya (barcha ko'rib chiqilayotgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim emas, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli metodologik sifatga ega emas va/yoki ularning qiziqtiruvchi natijalar bo'yicha xulosalari muvofiq emas).
C	Zaif tavsiya (etarli sifatli dalillarning yo'qligi (barcha ko'rib chiqilayotgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim emas, barcha tadqiqotlar past metodologik sifatga ega va ularning qiziqtiruvchi natijalar bo'yicha xulosalari muvofiq emas)).

**SURUNKALI BRONXIT KASALLIGINI TASHXISLASH VA DAVOLASH
BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL**

2. Asosiy qism.

2.1. Kirish

Kattalarda surunkali bronxit muammosining dolzarbligi kasallikning yuqori tarqalganligi, ayniqsa, 30-60 yoshdagi mehnatga layoqatli aholi o'rtasida keng tarqalganligi bilan bog'liq. Surunkali bronxit ko'pincha o'pka funksiyasining tobora yomonlashuvi, bemorlarning hayot sifatining pasayishi va surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (SOO'K) va nafas etishmovchiligi kabi jiddiy asoratlarning rivojlanishi bilan kechadi. Bu kasallik kattalar o'rtasida gospitalizasiyalar sonining ko'payishi, nogironlik va o'lim darajasining oshishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shu sababli, klinik protokollarni ishlab chiqish, surunkali bronxitni tashxislash, oldini olish va davolashning zamonaviy usullarini joriy etish bemorlarning sog'ligini yaxshilash, ularning mehnatga layoqatini oshirish va sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy yukni kamaytirish uchun katta ahamiyatga ega.

- Surunkali bronxit klinik jihatdan hech bo'lmaganda ketma-ket 2 yil davomida 3 oy yoki undan ortiq muddatda yo'tal va balg'am ajralishi bilan kechadigan kasallik sifatida
- Surunkali bronxitning kuchayishi, balg'am hajmining ko'payishi, balg'amning iriylashishi, nafas qisishining paydo bo'lishi yoki kuchayishi kabi simptomlar bilan
- Yo'tal – organizmning himoyaviy reaksiyasi bo'lib, nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini

2.3. Ta'rifi

Surunkali bronxit mustaqil kasallik sifatida belgilanadi, u boshqa biron-bir kasallik bilan bog'liq bo'lmaydi va kamida 3 oy davomida ketma-ket 2 yil yoki undan ortiq vaqt mobaynida surunkali bronxial gipersekresiya bilan kechadi, odatda mahsuldor yo'tal sifatida namoyon bo'ladi.

Eslatma. Kamida 3 oy davomida ketma-ket 2 yil yoki undan ortiq vaqt mobaynida mahsuldor surunkali yo'talga ega bo'lgan, bronxial obstruksiyaning funksional belgilari kuzatilmagan bemorlarda, boshqa ehtimoliy respirator yoki boshqa sabablarni istisno qilgan holda, SB tashxisini qo'yish tavsiya etiladi.

Respirator simptomlari bo'yicha standartlashtirilgan so'rovnoma

Siz odatda qish faslida ertalab balg'am tushirasizmi? (Birinchi sigaretani chekish yoki ko'chaga chiqish paytida balg'am ajralishi, bu holat burindan ajralmani hisobga olmagan holda). Balg'amni yutib yuborish ehtimoli ham mavjud.	Xa/Yuq
Qish faslida Siz odatda kun davomida yoki tun bo'yi balg'am ajratasizmi?	Xa/Yuq
Agar 1 yoki 2-savollarga javob «Ha» bo'lsa, keyingi savol:	Xa/Yuq
Siz yil davomida 3 oy davomida balg'am tupurasizmi?	Xa/Yuq
Berilgan savollarga mos javoblarga qarab muvofiq sinflar ajratiladi: Sinf0: Salbiy: 3-savolga «Yo'q» Sinf 1: Balg'am ba'zan ajraladi: 1 yoki 2 va 3-savolga «Ha» Sinf 2: Balg'am butun kun davomida: 1, 2 va 3-savolga «Ha».	Xa/Yuq

2.4. ETIOLOGIYA VA PATOGENEZI

Xavf omillari

SB rivojlanishi va kuchayishining xavf omillari bo'lishi mumkin:

- zararli odatlarning mavjudligi (chekish),
- fizik va kimyoviy omillarning ta'siri (chang, tutun, uglerod oksidi, oltingugurt angidridi, azot oksidlari va boshqa kimyoviy birikmalarni nafas olish),
- iqlim omillari (nam va sovuq iqlim),
- mavsumiylik (kuz, qish, erta bahor),
- allergik kasalliklar va immunitet tanqisligi holatlari,
- virusli infeksiya (odatda kuchayish sababi sifatida ahamiyatga ega),
- genetik omillar, konstitusional moyillik.

Kasallik etiologiyasi

SB (surunkali bronxit) paydo bo'lishi va rivojlanishida ekzogen va endogen omillar yaqin o'zaro ta'sir qiladi. Ekzogen omillar orasida esa qo'zg'atuvchi va shikastlovchi pollyutantlar (maishiy va ishlab chiqarish xususiyatiga ega) hamda zararli (kimyoviy va mexanik ta'sir etuvchi) changlar bronxlarning shilliq qavatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekzogen omillar orasida eng muhim o'rinni tamaki tutunining ta'siri egallaydi. XB bilan kasallanish sigaret chekish miqdoriga to'g'ri proporsional. Sigaret tutuni 400ta zarracha va gazlarni o'z ichiga nafas olgan murakkab qo'shilma hisoblanadi, lekin ularning har birining aniq etiologik roli hali aniqlanmagan.

Ish joyidagi xavflar va SB rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydigan bir qator epidemiologik tadqiqotlar mavjud. Diaqnoz, odatda, istisno usuli bilan qo'yiladi. Bu jarayon qiyin, chunki ko'plab ishchilar chekishadi yoki passiv chekishga duch kelishadi.

Ish joylarida tutun ta'siri pasayishga moyil bo'lsa ham, jamoat joylarida chekishni taqiqlovchi qonunlarning qabul qilinishiga qaramay, bu holat hali ham dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlarda muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, ko'p hollarda tamaki tutuni ta'siriga uyda ham duch kelinadi. Passiv tamaki tutuni ta'siri, hatto yoshlarda, surunkali yo'tal va balg'am paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, boshqa xavf omillarini istisno etuvchi skriningdan o'tgan bo'lsa ham kuzatiladi. Har kuni tamaki tutuni ta'siri davomiyligining ortishi bilan xavf sezilarli darajada oshib boradi. Kam taraqqiy etgan mamlakatlarda surunkali bronxitning yana bir muhim sababi oshxonada ovqat pishirishda yoqilg'i bug'lari, ayniqsa, yopiq va havosi yaxshi aylanmaydigan binolardagi ta'sir hisoblanadi.

Organik chang ta'siriga uchragan ishchilar surunkali yo'taldan va astmaga o'xshash obstruktiv simptomlardan shikoyat qilishlari mumkin, lekin nafas yo'llari eozinofiliyasi kuzatilmaydi, havo o'tkazuvchanligining tiklanuvchi obstruksiyasi yoki bronxlarning gipersezuvchanligi bilan birga kechadi. Bu holat paxta, jut, kanop, zig'ir, yog'och, turli don va ko'mir changi, shishasimon tolalar, sement, kremniy dioksidi, silikatlar, vanadiy, payvandlash gazlari, organik changi, dvigatel chiqindilari va hokazolarning surunkali ta'sirida yuz beradi.

Havo havzasining ifloslanishi va nomaqbul iqlimiy omillar (sovuqqa tushish va issiqqa chidash) ahamiyati katta.

Etiologik omillar orasida virusli infeksiyalar (gripp viruslari, adenoviruslar), mikoplazma va bakterial infeksiyalar (*S.pneumonia*, *H.influenzae*, *M.catarrhalis*) kamroq ahamiyatga ega, lekin ularning ahamiyati surunkali bronxit kuchayganida sezilarli darajada ortib boradi.

Barcha shaxslarda bir xil noqulay ekzogen ta'sirda surunkali bronxit paydo bo'lmasligi sababli, XB rivojlanishiga olib keladigan endogen omillarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Bularga burin-tomoq patologiyalari, nafas yo'llarini tozalash, namlash va isitishning buzilishiga

olib keluvchi burin orqali nafas olishning o'zgarishi, shuningdek, takroriy o'tkir respirator kasalliklar, o'tkir bronxitlar va yuqori nafas yo'llari infeksiyasi o'choqlari, mahalliy immunitetning buzilishi va semizlik kiradi.

KASALLIK PATOGENEZI

Nafas yo'llarining tuzilmaviy o'zgarishlari asosan sog'lom odamlarda, ayniqsa chekishadiganlarda, hatto 20-30 yosh oralig'ida tasvirlangan. Tadqiqotlar neytrofillar va makrofaglar sonining ortishiga ishora qiladi, ular XB yallig'lanish jarayonining shakllanishi va saqlanishida muhim rol o'ynaydi.

Normal holatda bronxial bezlar kuniga taxminan 500 ml balg'am ishlab chiqaradi va bu odatda sezilmaydi. Ammo XB bo'lgan chekishadiganlarda kuniga o'rtacha 100 ml/sut balg'am ko'proq ajralib, bu yo'tal va balg'am to'planishining asosiy sababi hisoblanadi.

XB davomida shilliq qavat va uning osti qatlamining tuzilmaviy-funksional xususiyatlari o'zgaradi. Bu bokalsimon hujayralar va bronxial bezlarning giperplaziyasi va giperfunksiyasida, shilliq gipersekresiyasi va uning xossalari o'zgarishida namoyon bo'ladi (shilliq sekresiyasi quyuq, chaspoq bo'lib, multilovchi epiteliyning kirpikchalarini to'sadi). Buning natijasida mukosiliar transport tizimi buziladi.

Bronxlarning mukosiliar transportining samaradorligi ikki asosiy omilga bog'liq:

1. Multilovchi epiteliy funksiyasi bilan belgilanadigan mukosiliar eskalator.
2. Bronxial sekresiyaning reologik xususiyatlari (uning chaspoqligi va elastikligi), va ularning ikki qatlami – tashqi (gel) va ichki (zol) o'rtasidagi optimal nisbat bilan ta'minlanadi.

Shilliq qavat yallig'lanishiga infeksiya (virusli va bakterial) bilan birga turli qo'zg'atuvchi moddalar sabab bo'ladi. Sekretor IgA ishlab chiqarilishi kamayadi, shilliqda lizosim va laktoferrin miqdori pasayadi. Shilliq qavat shishi, keyinchalik esa atrofiya va epiteliy metaplaziyasi rivojlanadi.

Havodagi kimyoviy moddalar nafas yo'llariga shikast etkazib, shilliq qavat shishi va bronxospazm bilan kechadi. Bu bronxlarning evakuator funksiyasining buzilishiga va shilliq qavatning to'siq funksiyasining pasayishiga olib keladi. Kataral mazmun kataral-iriy, keyinchalik esa iriy mazmun bilan almashadi.

Yallig'lanish jarayonining bronxial daraxtning distal bo'limlariga tarqalishi surfaktant ishlab chiqarilishini buzadi va bakteriyalar hamda boshqa chetdan kirgan zarralarni fagositoz qiladigan alveolyar makrofaglar faolligini pasaytiradi.

Bronxlarning drenaj funksiyasining buzilishi quyidagi bir qator omillarning birgalikda ta'sir qilish natijasida yuzaga keladi:

- Ekzogen omillarning bevosita qo'zg'atuvchi ta'siri va shilliq qavat yallig'lanish o'zgarishlari natijasida yuzaga keluvchi bronxlarning siliq mushaklari spazmi;
- Shilliq gipersekresiyasi, uning reologik xususiyatlarining o'zgarishi, bu esa mukosiliar transportning buzilishiga va bronxlarni quyuq sekresiya bilan to'sib qo'yilishiga olib keladi;
- Silindrsimon epiteliyning ko'pqavatli yassi epiteliyga metaplaziyasi va uning giperplaziyasi;
- Shilliq qavatning yallig'lanish shishi va infiltratsiyasi;

- Shilliq qavatning allergik o'zgarishlari.

Shilliq qavatning yallig'lanishini aks ettiruvchi turli o'zgarishlar uning turli klinik shakllarini shakllantirishga olib keladi.

Kataral bronxitda shilliq qavatning tuzilmaviy-funksional xususiyatlarida yuzaki o'zgarishlar ustun bo'ladi; shilliq-iriy (yoki iriy) bronxitda esa infeksiyon yallig'lanish jarayonlari ustunlik qiladi. Bronxitning bir klinik shaklidan ikkinchisiga o'tish mumkin. Masalan, kataral bronxit uzoq vaqt davom etsa, infeksiya qo'shilishi natijasida shilliq-iriy shaklga aylanishi mumkin va hokazo.

Bronxlarning asosan yirik o'lchamli qismlari jalb etilganda (proksimal bronxit) bronxial o'tkazuvchanlik buzilishlari sezilmaydi. Mayda bronxlar va o'rta o'lchamli bronxlar zararlanganda bronxial o'tkazuvchanlikning buzilishi ko'pincha yuz beradi, bu, odatda, XB kuchayishi vaqtida aniq namoyon bo'ladi.

Eslatma. Barcha sanab o'tilgan ekzogen va endogen omillar, shuningdek, patogenetik mexanizmlar boshqa kasalliklarni, avvalo, XOBLni rivojlanish sababi bo'lib xizmat qiladi, buni klinik amaliyotda hisobga olish zarur.

2.5. SB KLASSIFIKASIYASI

Funksional xarakteristika:

- Obstruktiv emas
- Obstruktiv sindrom bilan

Yallig'lanish xarakteri:

- Kataral
- Shilliq-yiringli
- Yiringli

Kasallik og'irlik darajasi:

- Engil
- O'rtacha
- Ogir

Kasallik fazasi:

- Kuchayish
- Barqaror bo'lmagan remissiya (kamayib borayotgan kuchayish)
- Klinik remissiya

2.6. KLINIK KO'RINISHI:

SBning asosiy va muhim simptomi balg'am ajralishi bilan kechuvchi yo'taldir.

SB quyidagi kasalliklardan har biri bilan bir vaqtda mavjud bo'lishi mumkin:

- o'pkaning har qanday kasalliklari, masalan, sil, pnevmoniya, kistoz kasalliklar va bronxoektaziya;
- o'pkaning generalizasiyalangan kasalliklari (obstruktiv, granulematoz va interstisial kasalliklar, pnevmokoniozlar);
- boshlang'ich yurak-tomir yoki buyrak kasalliklari.

Ayrim bemorlar o'zlarida balg'am ajralishiga ega bo'lmagan surunkali yoki residivli yo'tal borligini ta'kidlaydilar. Biroq, balg'am mavjud bo'lib, bemorlar uni yutib yuborishadi. Agar

yoʻtal mahsuldor boʻlmasa, u "surunkali quruq yoʻtal" sifatida baholanishi mumkin, to ki yoʻtalning aniq sababi aniqlanguniga qadar.

"Surunkali bronxit" klinik tashxisining formulirovkasi

- Klinik varianti (noobstruktiv, obstruktiv sindrom bilan)
- Kasallik shakli (yalligʻlanish xarakteriga koʻra: kataral, kataral-yiringli, yiringli)
- Jarayon fazasi (kuchayish, susayib borayotgan kuchayish yoki barqaror boʻlmagan remissiya, remissiya)
- Asoratlar

Surunkali noobstruktiv bronxit tashxisining formulirovkasini berganda "noobstruktiv" terminini qoʻllamaslik mumkin.

Eslatma.

SB tashxisini formulirovka qilishda obstruktiv sindromni koʻrsatish TAVSIYA ETILMAYDI, faqat birinchi marta kasallikning kuchayishi vaqtida aniqlangan holatlar istisno qilinadi. Obstruktiv sindrom mavjudligi tashxisni aniqlashni talab qiladi va SBning namoyon boʻlishi hisoblanmaydi. SB uchun asoratlar xos emas.

3. DIAGNOSTIKA

3.1. Tashxis qoʻyish kriteriyalari:

- "Yoʻtal anamnezi" (3 oy davomida, kamida 2 yil mobaynida mahsuldorligi kam boʻlgan yoki balgʻam ajralishi bilan kechuvchi yoʻtal).
- Bronx-oʻpka apparatining boshqa patologiyalarining yoʻqligi (sil, bronxoektaziya, pnevmoniya, bronxial astma, oʻpka saratoni va boshqalar), "yoʻtal anamnezi"ga sabab boʻluvchi holatlar istisno qilinadi.
- SOOʻK differensial diagnostikasida nafas yoʻllari obstruksiyasining aniqlanishi (unga xos qayta tiklanuvchi va qayta tiklanmaydigan komponentlar).

3.2. Shikoyatlar va anamnezi

Shikoyatlar kasallikning kechi shi varianti va jarayon lokalizatsiyasiga bogʻliq. Shikoyatlar va anamnez «klinik koʻrinish» boʻlimida bayon etilgan.

Shikoyatlar:

Yoʻtal – SB boʻlgan bemorlarda asosiy shikoyat. Yoʻtalning xususiyatlari:

- Paydo boʻlish vaqtiga koʻra: ertalab, kunduzi, kechqurun, tungi;
- Davriyligiga koʻra: tez-tez, davriy, doimiy, hujumsimon, ogʻriqli, ogʻriqsiz;
- Xarakteriga koʻra: mahsuldor emas (quruq), mahsuldor (nam);
- Intensivligiga koʻra: engil yoʻtal, oʻrtacha kuchli, kuchli;
- Ovoz chiqishiga koʻra: ovozsiz, engil yoʻtal, qattiq;
- Davomiyligiga koʻra: epizodik qisqa muddatli yoki hujumsimon doimiy;
- Kechishiga koʻra: oʻtkir yoʻtal 3 haftagacha, oʻtkirdan keyingi 4 haftadan 8 haftagacha, surunkali 8 haftadan ortiq.

Yoʻtalni ACCP (American College of Chest Physicians) tavsiyalariga muvohiq baholash tavsiya etiladi, klinik amaliyotlarni xisobga olib (5S sinf/shkala tavsiyasi).

Kasallik anamnezi:

SB asta-sekin boshlanadi: ertalabgi yoʻtal bilan birga shilliq balgʻam ajralishidan iborat boʻlib, vaqt oʻtishi bilan kun davomida bemorni bezovta qila boshlaydi, sovuq va nam havo sharoitida kuchayadi. Bu holat kamida ketma-ket 3 oy davomida, 2 yil yoki undan ortiq vaqt davomida kuzatiladi va yillar oʻtishi bilan doimiy ravishda kuzatiladi.

Surunkali bronxitdagi yoʻtal

ACCP (American College of Chest Physicians) tavsiyalari.

«Shamollash xolati boʻlmaganda, yoʻtalni kuzatasizmi?»	Ha
«Yil davomida sizda uzoq kunlar mobaynida yoʻtaladigan oylar boʻladimi?»	Ha
«Siz yil davomida 3 oy mobaynida koʻp kunlar yoʻtalasizmi?»	Ha
«Nechchi yil mobaynida yoʻtalni kuzatvossiz?»	≥2 yil

Barcha savollarga ijobiy javoblar SB (surunkali bronxit) mavjudligini koʻrsatadi.

Yoʻtalni differensial tashxislash jarayonida quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi:

- yoʻtal qancha vaqtdan beri mavjud;
 - yoʻtal quruqmi yoki balgʻam bilan;
 - sutka davomida qancha balgʻam ajralishi;
 - balgʻamning xususiyati qanday;
 - balgʻamda qon qoʻshimchasi bormi;
 - burindan ajralishlar mavjudmi;
 - ish kasbiy zararlar bilan bogʻliqmi;
 - yaqin qarindoshlar orasida uzoq vaqtli yoʻtal, sil, saraton yoki bronxial astma bormi;
 - bemor APF ingibitorlari yoki beta-adrenoblokatorlar qabul qilyaptimi.
- (Tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

SBning boshlangʻich bosqichlarida yoʻtal faqat ertalab kuzatiladi – «bronxlarning ertalabgi tozalanishi» kichik miqdorda balgʻam ajralish bilan kechadi, yoʻtal sovuq va nam havo boʻlgan vaqtlarda kuchayishi mumkin.

Vaqt oʻtishi bilan yoʻtalning tez-tez takrorlanishi ortib boradi (ertalab, ertalab va kunduzi, kun davomida). Yoʻtal traxeya shilliq qavatida va asosiy bronxlar boʻlinuvchi joylarda («shporalar») joylashgan adashgan nerv reseptorlarining qoʻzgʻatilishi natijasida paydo boʻladi.

Mayda bronxlarda yoʻtal reseptorlari mavjud emas, shuning uchun balgʻam bilan yoʻtal – proksimal bronxitning asosiy koʻrinishidir. Traxeya va yirik bronxlarning ekspirator kollapsi (traxeyaning membranoz qismining uning yoʻlini bosishi va bronxlarning havo chiqarish paytida tushib ketishi) kuchayganda, yoʻtal «voʻvillovchi» xarakterini oladi va miyaning oʻtkir gipoksiyasi natijasida hushdan ketish holatlari (sinkope) bilan birga kechishi mumkin.

3.3. Fizikal tekshiruv

SB boʻlgan bemorlarda fizikal patologiya simptomlari mavjud boʻlmasligi mumkin.

Auskultasiyada kuzatiladigan oʻzgarishlar: quruq tarqoq xirillashlar, asosan koʻkrak qafasining orqa-pastki qismlarida, yirik va oʻrta bronxlardagi jarayonlarda qoʻpol gʻujurlagan quruq xirillashlar, hamda mayda bronxlarning zararlanishida, ayniqsa nafas chiqarish vaqtida yaxshi eshitiladigan hushtaksimon xirillashlar bronxospastik sindromi borligini koʻrsatadi.

Eslatma. Keltirilgan auskultativ manzara nafas olish organlarining boshqa kasalliklari bilan oʻz vaqtida differensial tashxisni talab qiladi.

Bronxitning evolyusiyasi va u bilan bog'liq asoratlar bemorni to'g'ridan-to'g'ri tekshiruvda olingan ma'lumotlarni o'zgartiradi. Giperinflyasiya, o'pka emfizemasi, nafas etishmovchiligi belgilari SOO'K ni ko'rsatadi.

Hamma SB bemorlarida patologik simptomlarni aniqlash uchun fizikal tekshiruv o'tkazish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

O'pka auskultasiyasini jadal nafas olganda va yotgan holatlarda o'tkazish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

3.4. Laboratoriya va tashxis tadqiqotlari

Kasallikning boshlang'ich bosqichida, shuningdek, SB remissiya davrida laboratoriya-instrumental ko'rsatkichlarda o'zgarishlar kuzatilmaligi mumkin. SB rivojlanishi davomida laboratoriya va instrumental tadqiqot usullari katta ahamiyatiga ega bo'ladi. Ular yallig'lanish jarayoni faolligini aniqlash, kasallikning klinik shaklini aniqlash, asoratlarni aniqlash va klinik simptomlari o'xshash bo'lgan kasalliklar bilan differensial tashxis qo'yish uchun qo'llaniladi.

Kamida 2 yil davomida ketma-ket 3 oy mobaynida surunkali mahsuldor yo'talga ega bo'lgan bemorlarga SB tashxisi nafas yo'llari yoki yurakning boshqa ehtimoliy sabablarini istisno qilgandan so'ng qo'yish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

Hamma surunkali yo'tal bor bemorlarda quyidagilarni baholash tavsiya etiladi: respirator qo'zg'atuvchi ta'sirlar (turli xil chekish tutuni); ish joyi va uyda passiv chekish tutuni ta'siri; noqulay professional va/yoki maishiy sharoitlar, chunki ularning barchasi surunkali bronxit rivojlanishining moyillik omillari hisoblanadi (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

Barqaror SB holatidagi bemorlarda balg'amning nativ yoki bo'yalgan preparatlarini mikroskopik tekshiruvdan o'tkazish uchun rutin tekshiruv TAVSIYA ETILMAYDI (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

Shuningdek, barqaror XB holatidagi bemorlard yallig'lanish faolligini o'lchovchi reaksiyalarning o'tkir bosqichi va qon biokimyos ko'rsatkichlarini (qonda C-reaktiv oqsil, sial kislotalari, seromukoid, fibrinogen darajasini tekshirish va boshqalar) aniqlash uchun rutin tekshiruv TAVSIYA ETILMAYDI (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

Eslatma. SBning stabil kechuvi yallig'lanishning sistemaviy xususiyati va biokimyoviy buzilishlar bilan birga kechmaydi.

Barcha SB bemorlariga nafas etishmovchiligini va uning darajasini aniqlash uchun 6-daqiqalik yurish sinovidan oldin va keyin pulsoksimetriya (SpO2 baholash) o'tkazish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 2S).

Eslatma. SB nafas etishmovchiligi bilan birga kechmaydi, uning mavjudligi SOO'K yoki boshqa kasallik mavjudligini ko'rsatadi.

3.5. INSTRUMENTAL TASHXIS TADQIQOTLARI

Rentgenologik usullar

Barcha SBga shubha qilingan bemorlarda nafas olish organlarining boshqa kasalliklarini istisno qilish uchun oldingi to'g'ri proeksiyada o'pka rentgenografiyasini o'tkazish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 5S).

Eslatma. Ko'pchilik bemorlarda umumiy rentgenogrammada o'pkada o'zgarishlar kuzatilmaydi. SB uzoq davom etganda o'pka to'qimasi retikulyar deformatsiyasi aniqlanadi, bu ko'pincha distal bronxitning boshqa belgilari bilan birga uchraydi. O'pka rentgenografiyasi asoratlari yoki nafas olish a'zolarining boshqa patologiyalarini (pnevmoniya, bronxoektaziyalar) tashxislashda yordam beradi, shuningdek, bronxit simptomlari asosiy jarayonga hamroh bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklar (sil, o'sma va h.k.) bilan differensial tashxis qo'yishda qo'llaniladi.

Kompyuter tomografiyasi

Barcha SB bemorlarida qo'shimcha tekshiruvlar uchun yuqori aniqlikdagi kompyuter tomografiyasidan (КТҮА) foydalanish tavsiya etilmaydi (**tavsiya sinfi/shkalasi 5S**).

Eslatma. КТ nafas olish organlarining boshqa patologik o'zgarishlarini (bronxoektaziyalar, o'pka emfizemasi va boshqalar) aniqlash uchun qo'llaniladi, lekin SBni tasdiqlash uchun emas. Ташқи нафас олиш функциясини тадқиқ қилиш

Barcha SB bemorlarida restriktiv va obstruktiv o'pka ventilyatsiyasi buzilishlarini aniqlash maqsadida va SOO'K bilan differensial diagnostikasini o'tkazish uchun TNOFning JNChH1, O'JTS, JTS, JNChH1/O'JTS ko'rsatkichlarini o'rganish tavsiya etiladi (**tavsiya sinfi/shkalasi 5S**).

Эслатма. Барқарор СБ ҳолатида ТНФ кўрсаткичлари нормал қийматлар доирасида бўлади.

Клиник ремиссия фазасидаги барқарор СБ функционал нуқтаи назардан ЖНЧ₁/ЎЖТС нисбати $\geq 0,7$ бўлиши билан бирга кечади, сальбутамол (400 мкг) билан бронходилатацион тест манфий бўлади (ЖНЧ₁ 12% дан ва бошланғич қийматдан 200 мл дан кам ўсади). СБ бронхообструктив синдроми (БОС) кuzатилмайди.

Elektrokardiogramma registratsiyasi

Barqaror SB holatidagi bemorlarda rutin tashxis qo'yish uchun EKG o'tkazish TAVSIYA ETILMAYDI (**tavsiya sinfi/shkalasi 2S**).

Eslatma. SBda elektrokardiografiya qo'shimcha ma'lumot taqdim etmaydi.

3.6. SB DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI

Surunkali bronxitning differensial diagnostikasi surunkali yo'tal sindromi (8 haftadan ortiq davom etadigan yo'tal) bilan kechadigan kasalliklar bilan o'tkaziladi.

Anamnezni diqqat bilan yig'ish, klinik simptomlarni baholash va fizikal tekshiruv ma'lumotlari jiddiy, hayot uchun xavfli kasalliklarni istisno qilish imkonini beradi.

Surunkali yo'tal bilan kechadigan kasalliklar ro'yxati

Kasallik	Klinik va anamnestik ma'lumotlar
Bronxial astma	«Xushtaksimon» nafas olish, xurujsimon xansirash, bo'g'ilish, shu jumladan jismoniy zo'riqish yoki sovuq havoni nafas olish natijasida yuzaga keladi.
Tuberkulez	Xarorat ko'tarilishi, vazn yo'qotish, tungi terlash, qon tuflash
O'pka saratoni	Qarilik yoshi, chekish tarixi, vazn yo'qotish, qon tuflash (gemoptiz).
Metastatik o'pka kasalligi	Ilgari tashxislangan qattiq yomon sifatli o'sma.
Surunkali yurak etishmovchiligi	Yurak va qon-tomir kasalliklari tarixi, xansirash, ortopnoe xolati, periferik shishlar
SOO'K	Chekish tarixi (IK ≥ 10 «quti/yil»), surunkali balg'am ajralishi
Interstisial o'pka kasalligi	Xansirash, tashqi muhit omillarini ehtimoliy ta'siri, ovoqli inspirator kreptasiya.

Surunkali yo'tal bilan kechadigan kasalliklar/patologik holatlarning ehtimoliy keng doirasini hisobga olgan holda, ularni tez-tez, kamroq va kamdan-kam uchraydigan holatlarga, ajratish to'g'ri maqsadiga muvofiqdir.

Surunkali yo'tal bilan kechadigan tez-tez va kam uchraydigan kasalliklar ro'yxati.

Kasallik	Kliniko-anamnestik ma'lumotlar
Tez-tez uchraydigan kasalliklar	<ul style="list-style-type: none"> – SOO'K – Yatrogen yo'tal (APF ingibitorlarini qabul qilish natijasida) – Yuqori nafas yo'llari kasalliklari bilan bog'liq yo'tal («postnazal oqishi») – Bronxial astmani yo'tal varianti – Gastroezofageal reflyuks kasalligi
Kamroq uchraydigan kasalliklar	<ul style="list-style-type: none"> – Postinfeksion yo'tal (ko'proq B.pertussis- va M.pneumoniae-infeksiyasi bilan bog'liq) – Bronxoektazlar – Obstruktiv uyqu apnoesi – O'pka saratoni – Surunkali yurak etishmovchiligi – Tuberkulez
Kamdan-kam uchraydigan kasalliklar	<ul style="list-style-type: none"> – Sarkoidoz – Pnevmoniozlar – Residiv aspirasiyasi – Tanglay bezlarini gipertrofiyasi – Idiopatik o'pka fibrozi – Tashqi eshitish yo'lining surunkali irritasiyasi (oltingugurt tiqini, yod jism). – Nafas yo'liga tushgan (aspirlangan) chet jism – Mukovissidoz – Traxeomalyasiya

Kasallik	Kliniko-anamnestik ma'lumotlar
	- Odatiy (psixogen) yo'tal yoki yo'tal tiki - Arterio-venoz malformasiya va boshqalar

Xavf omillarining o'zaro bog'liqligini, yirik nafas yo'llaridagi patomorfologik o'zgarishlarning yaqinligini va bunga muvofiq ravishda klinik ko'rinishlarning o'xshashligini (surunkali mahsuldor yo'tal) hisobga olgan holda, amaliyotchi shifokor oldida ko'pincha SB va SOO'K ni ajratish zaruriyati paydo bo'ladi.

Bu holda eng oddiy va ko'rsatkichli usul sifatida bronxolitik proba bilan nafas hajmlari va oqimlarini tadqiq qilish tavsiya etiladi. SOO'K uchun rasmiy spirometrik mezon havo oqimining cheklanishi ($JNChH1/O'JTS < 0,7$) hisoblanadi, ammo SB bo'lgan bemorlarda, agar kasallik kuchaymagan bo'lsa, tashqi nafas olish funksiyasining ko'rsatkichlari me'yoriy qiymatlarga yaqin bo'ladi.

Yo'tal, dori vositalarining nojo'ya ta'siri sifatida (NT) APF ingibitorlarini qabul qilayotgan bemorlarning 5–20%ida yo'tal rivojlanishi mumkin va bu bradikinin va yo'tal mediatorlarining to'planishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash muhimki, yo'talning paydo bo'lishi preparatning dozasi yoki uni qabul qilish muddati (bir necha kundan bir necha oygacha) bilan bog'liq emas. Oddiy hollarda APF ingibitorini bekor qilgandan keyin yo'tal 1–4 hafta ichida to'xtaydi. Bundan farqli o'laroq, angiotenzin II antagonistlari (sartanlar) yo'talni keltirib chiqarmaydi va bu dori vositasi nojo'ya ta'sir rivojlanganda APF ingibitorlariga mos alternativa sifatida qaraladi.

Yuqori nafas yo'llari kasalliklari bilan bog'liq yo'tal (YuNYKY)

YuNYKY yoki «postnazal oqishi» allergik (mavsumiy yoki yil davomida), allergik bo'lmagan (vazomotor), medikamentoz rinit («rikoshet» effekti – dekongestantlar va boshqa mahalliy preparatlarni uzoq muddatli qo'llashni to'xtatgandan keyin) bo'lgan bemorlarda, shuningdek, surunkali bakterial rinosinusit yoki anatomik anomaliyalar (burin to'sig'ining qiyshayishi) bilan kechadigan hollarda tez-tez uchraydi. 20%dan ortiq hollarda ushbu holatda rivojlangan yo'tal «jim» bo'lib, ya'ni yuqori nafas yo'llari kasalliklariga xos simptomlar bilan birga kechmaydi. YuNYKY tashxisini faqat maqsadli tekshiruv (MSKT, sinuslarning paranazal sinuslarini tekshirish, otorinolarinolog ko'rigidan o'tish) va keyingi davolash jarayonidagi natijalardan so'ng tasdiqlash mumkin.

Bronxial astmaning yo'tal varianti (BA). Bronxial astmali ayrim bemorlarda kasallik yo'tal bilan namoyon bo'lishi mumkin, boshqa simptomlar yoki fizikal tekshiruv jarayonida qandaydir o'zgarishlar kuzatilmaydi. Surunkali yo'talga ega bo'lgan bemorlar orasida bronxial astmaning yo'tal varianti taxminan 30% holatlarda uchraydi.

Differensial diagnostikaning zaruriyati. SB bo'lgan bemorlarda kasallik kuchaymagan holda spirometriya orqali aniqlangan klinik simptomlar va funksional buzilishlar, bronxoobstruktiv sindromning manfiy bronxodilatasion testi bilan birgalikda aniqlanishi, birinchi navbatda, SOO'K bilan differensial diagnostikasini talab qiladi.

SB va SOO'K bo'lgan bemorlarning klinik-funksional xususiyatlari

	Havo oqimi cheklanishi 1	Havo oqimi cheklanishi yo'q
Сурункали бронхит симптомлари ²	СОЎК	Сурункали бронхит
Сурункали бронхит симптомларининг йўқлиги	СОЎК	Йўқ

Eslatma:

1. Spirometriyada JNChH1/O'JTS <0,7.
